



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-94, jarqurgon.t@exat.uz, www.jarqorgon.uz

2022 - yil 16 - may

163-8-112-Q/22

Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

**Tumanda tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer
uchastkalarini ajratish bo‘yicha onlayn auksionga yer maydonlarini
joylashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida, Surxondaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasining, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limining, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha Jarqo‘rg‘on tuman inspeksiyasining va tuman IIBYHXGning xulosalarini, “O‘zGAShKLITI” MchJning topografik xaritasini hamda Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi Jarqo‘rg‘on tuman filialining kadastr yig‘ma jildini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-,25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Jarqo‘rg‘on tumani “Uzumzor” mahallasi hududida joylashgan “YERELEKTRON” avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi № P172221205535-4-son unikal raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan 0.0501 gektar bo‘sh yer uchastkasi tuman hokimligi zaxirasida mavjudligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat kadastrlar palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi (S.Shaymardanov)dan mazkur zaxiradagi yer maydonini davlat mulki sifatida Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi nomiga davlat ro‘yxatidan o‘tkazib berish so‘ralsin.

3.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Aliyarov zimmasiga yuklatilsin.

Jarqo‘rg‘on tuman hokimi



B.A.O'raqov